


TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI



MAHMUDOVA MOHINISO MIZROF QIZI

BEVOSITA VA O'ZARO DINAMIK BOG'LANGAN G'OVAK
MUHITLARDA GAZLAR FILTRATSIYA JARAYONLARINI
MATEMATIK MODELLASHTIRISH

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va
dasturlar majmui

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
потехническимнаукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Mahmudova Mohiniso Mizrof qizi

Bevosita va o'zaro dinamik bog'langan g'ovak muhitlarda
gazlar filtratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish 3

Махмудова Мохинисо Мизроф кизи

Математическое моделирование процессов фильтрации газа
в прямо и динамически связанных пористых средах 21

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

MAHMUDOVA MOHINISO MIZROF QIZI

BEVOSITA VA O'ZARO DINAMIK BOG'LANGAN G'OVAK
MUHITLARDAGI GAZLAR FILTRATSIYA JARAYONLARINI
MATEMATIK MODELLASHTIRISH

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va
dasturlar majmui

TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.1.PhD/T3464 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Ne'matov Abdug'ani
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: Djumanov Jamoljon Xudaykulovich
texnika fanlari doktori, professor

Normurodov Chori Begaliyevich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "___" _____ da soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: iktuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-ressurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "___" _____ dagi ___ raqamli ryestr bayonnomasi.)

M.M. Musayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

E.Sh. Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

F.M. Nuraliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining intensiv rivojlanishining asosini neft va gaz sanoati tashkil etadi. Shu sababli, neft va gaz filtratsiya jarayonlarini matematik modellashtirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish hamda suyuqlik va gazlarning g'ovakli muhitda harakatlanishining stasionar bo'lmagan jarayonlarini o'rganish uchun muammoli avtomatlashtirilgan tizimlar asosida hisoblash tajribalarini o'tkazishga katta e'tibor berilmoqda. Bu turdagi masalalarning matematik modellari, hisoblash algoritmlari va dasturiy majmuasini ishlab chiqish muammosiga Kanada, AQSh, Fransiya, BAA, Eron, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog'iston, Ozarbayjon va boshqa shu kabi rivojlangan mamlakatlarda ham katta e'tibor qaratilmoqda.

Butun dunyoda g'ovakli muhitda neft va gaz filtratsiya jarayonlarining matematik modelini yaratish, neft va gaz konlarining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash algoritmlari va dasturiy tizimlarini ishlab chiqish, neft va gazning geologik, gidrodinamik 3D modellarini yaratishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Gaz konlari obyektlari va filtratsiya jarayonlarini o'rganish, shuningdek olingan natijalarni o'rganish uchun hisoblash tajribalarini o'tkazish maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Respublikamizda ham neft va gaz sanoatini rivojlantirishda yuqori malakali kadrlar tayyorlash, mazkur sohada ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida o'zaro integratsiyani yo'lga qo'yish, kadrlarni o'qitishning usul va shakllarini takomillashtirish orqali ta'lim sifatini hamda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2022 yil 7 iyuldagi PQ-309-son "Neft va gaz sohasida ta'lim-ishlab chiqarish klasterini tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risida qaroriga asosan "...neft va gaz sohasi uchun ishlab chiqarish korxonalari ehtiyojlaridan kelib chiqib, zamonaviy talablar asosida xalqaro ta'lim standartlariga muvofiq mutaxassislar va ilmiy kadrlarni tayyorlash, ...ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri tatbiq qilish orqali neft va gaz sohasi mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish hamda sohaning eksport salohiyatini oshirish..." vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda matematik modellashtirish, hisoblash tajribalarini o'tkazishning samarali algoritmi va zamonaviy axborot texnologiyalar foydalangan holda dasturiy majmualarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda ushbu sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentimiz tomonidan neft-gaz sohasini rivojlantirish uchun bir qancha qaror va farmonlar qabul qilinib sohaga tadbir etilmoqda. Jumladan "Neft-gaz sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish" to'g'risidagi 28.01.2022 yil PF-60-sonli Farmoni, "Neft-gaz tarmog'ining moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" gi 04.04.2020 yil PQ-4664-sonli Qarori ushbu sohaning ilmiy asoslarini yaratish, yetuk mutaxassislarni tayyorlash va ularni ishlab chiqarish, joriy etish tarmoqlariga yo'naltirish hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qarorlarda va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Suyuqlik va gazlar filtratsiya jarayonlarining matematik modellarini ishlab chiqish va takomillashtirish, shuningdek ularni yechishning sonli usullarini, sust o'tkazuvchan qatlarga ega gaz qatlamlarida stasionar va nostasionar filtratsiya masalalarini yechish A.Monteiro, M.Sharma, S.Banerjee, X.Aziz, E.Settari, G.I.Barenblatt, M.Chraibi, S.Minjeaud, V.F.Piven, F.Boer, N.B.Lopuh, C.Lapuerta, A.X.Mirzadjanzade, M.M.Xasanov, B.B.Lapuk, K.S.Basniev, V.Y.Buligin, D.J.Axmed-Zaki, S.N.Zakirov, A.V.Axmetyanov, A.Nikiforov, A.V.Sepaev, O.R.Abbasov va boshqa xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

O'zbekiston Respublikasida g'ovak muhitlarda suyuqlik va gazlar filtratsiyasi jarayonlarining matematik modellari, hisoblash usullari va shu kabi tadqiqotlarga F.B.Abutaliyev, D.F.Fayzullayev N.M.Muxidinov, R.Sadullayev, A.Begmatov, B.X.Xo'jayorov, M.Aripov, N.Ravshanov, U.S.Nazarov, Sh.Qayumov, Y.Yarbekov, A.Mirzayev, A.Ne'matov, E.Sh.Nazirova va boshqa olimlar o'zlarining katta xissalarini qo'shganlar. Parabolik tipdagi differensial tenglamalar ko'rinishida ifodalanuvchi chegaraviy masalalarning filtratsiya jarayonlari D.F.Fayzullayev va F.B.Abutaliyev kitoblarida va boshqa adabiyotlarda keltirilgan.

Bu sohadagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sust o'tkazuvchan qatlarga ega bir – biri bilan o'zaro dinamik aloqadagi bir jinsli bo'lmagan ko'p qatlamli gaz konlarining nostasionar filtratsiya jarayonlari hozirgi kunda yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti (RTSIR ITI) ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 31222444 IC « NGK-EkoLoyiha» № E02.01-01 "Neft va gaz konlarini loyihalashtirish uchun algoritm va dasturiy mahsulot yaratish" (2022-2024) mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O'zaro dinamik va bevosita bog'langan aloqaga ega ko'p qatlamli gaz konlarida nostasionar filtratsiya jarayonlarining matematik modellari, yechishning sonli usullari va samarali hisoblash algoritmlarini ishlab chiqish, shu bilan birga hisoblash tajribalari sonli natijalarini taqdim etishning dasturiy majmuasini yaratish.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zaro dinamik va bevosita bog'langan bir jinsli bo'lmagan ko'p qatlamli g'ovak muhitda gazlar nostasionar filtratsiya jarayonlari matematik modellarini qurishda foydalaniladigan axborot modellarini shakllantirish hamda qatlam

o'tkazuvchanlik koeffitsienti va gaz filtratsiya sohasining axborot massivini yaratish;

sust o'tkazuvchan qatlamlarga ega o'zaro dinamik aloqadagi gaz konlari tizimi uchun bosim o'zgarishini hisobga olgan holda nostatsionar filtratsiya jarayonining bir va ikki o'lchovli matematik modeli ishlab chiqish;

ko'p qatlamli sust o'tkazuvchan qatlamlarga ega gaz filtratsiya chegaraviy masalasini o'zgaruvchan yo'nalishlar sxemasi asosida yechishning hisoblash algoritmini ishlab chiqish;

bevosita bog'langan uch qatlamli g'ovak muhitda gazning nostatsionar filtratsiya jarayonining uch o'lchovli matematik modelini ishlab chiqish, sonli modellashtirish va chekli ayirmalar sxemasi yordamida yechishning hisoblash algoritmini ishlab chiqish;

g'ovak muhitda uch qatlamli bevosita va o'zaro dinamik aloqaga ega gaz konlari asosiy ko'rsatkichlarini aniqlovchi va bashorat qiluvchi dasturiy majmua funksional tuzilmasi ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida bevosita va dinamik bog'langan uch qatlamli g'ovak muhitda gaz konlarining filtratsiya jarayoni qaralgan.

Tadqiqotning predmetini bevosita va dinamik bog'langan qatlamlarda gaz filtratsiya jarayoni matematik modellari, yechish algoritmlari va dasturiy majmuasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida hisoblash matematikasining sonli usullari, yechishning samarali algoritmlarini qurish hamda dasturlash texnologiyalari uslublaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sust o'tkazuvchan qatlamlarga ega o'zaro dinamik aloqadagi gaz konlari tizimi uchun bosim o'zgarishini hisobga olgan holda nostatsionar filtratsiya jarayonining bir va ikki o'lchovli matematik modeli ishlab chiqilgan;

ko'p qatlamli sust o'tkazuvchan qatlamlarga ega gaz filtratsiya chegaraviy masalasini o'zgaruvchan yo'nalishlar sxemasi asosida yechishning hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

bevosita bog'langan uch qatlamli g'ovak muhitda gazning nostatsionar filtratsiya jarayonining uch o'lchovli matematik modeli ishlab chiqilgan va sonli modellashtirilgan hamda chekli ayirmalar sxemasi yordamida yechishning hisoblash algoritmi ishlab chiqilgan;

g'ovak muhitda uch qatlamli bevosita va o'zaro dinamik aloqaga ega gaz konlari asosiy ko'rsatkichlarini aniqlovchi va bashorat qiluvchi dasturiy majmua funksional tuzilmasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dinamik bog'langan uch qatlamli gaz konlarini o'zlashtirishning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash algoritmi asosida dasturi ishlab chiqildi va kompyuterda hisoblash tajribalari o'tkazildi;

bevosita bog'langan uch qatlamli gaz konlarini o'zlashtirishning asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash algoritmi asosida dasturi ishlab chiqildi va kompyuterda hisoblash tajribalari o'tkazildi;

hisoblash tajribalarini o'tkazishda sonli natijalarni vizual formada taqdim etishning monitoring va bashorat qilish dasturiy majmuasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Massa va impulsning saqlanish qonunlari, suyuqliklar mexanikasi qonunlari, Darsi qonuni, hisoblash matematikasining tasdiqlangan usullari, shuningdek, olingan natijalarni sifat va miqdoriy baholanganligi bilan asoslanadi. Ko'rib chiqilayotgan jarayonlar uchun ishlab chiqilgan matematik ta'minotning adekvatligi hisoblash tajribalarini o'tkazishda moddiy balans tenglamasi yordamida tekshirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zaro dinamik va bevosita bog'langan ko'p qatlamli g'ovak muhitlarda gaz filtratsiya chegaraviy masalalari, sust o'tkazuvchan qatlamga ega bir-biri bilan o'zaro va bevosita bog'langan bir jinsli bo'lmagan gaz konlari nostatsionar filtratsiya jarayonlarining ikki va uch o'lchamli chegaraviy masalalarini chekli-ayirmalar usullarining afzalligidan foydalangan holda sonli modellashtirish hamda yechishning aniq va samarali algoritmlarini ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan matematik modellar va algoritmlar hamda dasturiy majmua O'zbekneftgaz sanoatida qo'llanilishi mumkinligi, shuningdek suyuqlik va gaz filtratsiyasi murakkab nostatsionar jarayonlarining matematik modellarini, ikki va uch o'lchovli filtratsiya masalalarini yechishning samarali hisoblash algoritmlarini amaliyotga tadbiqu bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bevosita va o'zaro dinamik aloqadagi ko'p qatlamli g'ovak muhitda gaz filtratsiya jarayonining ikki va uch o'lchovli matematik modellari, yechish algoritmlari hamda yaratilgan dasturiy majmua asosida:

“Ko'p o'lchovli g'ovak muhitlarda neft-gaz filtratsiya jarayonlarining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblashda samarali algoritmlarni qo'llash va sonli natijalarni vizuallashtirish” dasturiy ta'minotini “Geo Interpretation Group” MChJ ga joriy etilgan(Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023 yil 4 dekabrda 33-8/8673-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, asosiy ko'rsatkichlarni hisoblashdagi o'zgarishlarni real vaqtda 3D grafik ko'rinishlarda kuzatish imkoniyati yaratilgan, olingan natijalarining aniqligi va ishonchliligi oshgan hamda hisoblashga ketgan vaqtning kamayishi hisobiga 32% gacha mehnat samaradorligiga erishilgan.

“Ikki qatlamli g'ovak muhitlarda gaz filtratsiya jarayonini kompyuterli modellashtirish” dasturiy ta'minoti “Epsilon Development Company” MChJ obyektida joriy qilingan(Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023 yil 4 dekabrda 33-8/8673-sonli ma'lumotnomasi). Ishlab chiqilgan matematik modellar, hisoblash algoritmlari va dasturiy ta'minotni joriy etish orqali sonli natijalarining o'zgarishini real vaqtda 2D va 3D grafik ko'rinishlarida kuzatish va olingan natijalarni aniqligi, ishonchliligi va xatoliklarning kamayishiga erishilgan. Unda hisoblashga ketgan vaqt 8-10 % qisqargan va ishlab chiqarish samaradorligi 7 % ga oshgan.

“Ko'p qatlamli g'ovak muhitda gaz filtratsiya jarayonini sonli modellashtirish” ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot “Gissarnetgaz” MChJ obyektlariga joriy qilingan(Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023 yil 4 dekabrda 33-8/8673-sonli ma'lumotnomasi). Olingan natijalar o'zaro dinamik aloqadagi ko'p

qatlamli gaz konlarini o'zlashtirish va tahlil qilish uchun foydali bo'lib, gaz konlarining ishlash samaradorligini 5-6 % ga oshirishga erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro (1 tasi scopus) va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shulardan, 3 ta xorijiy va 4 ta respublika jumllarida nashr qilingan, 9 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda, 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida shuningdek, EHM uchun dasturiy mahsulot qayd etilganligi haqida 6 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiya hajmi 107 bet, 43 ta rasmni o'z ichiga olgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining "Ko'p qatlamli g'ovak muhitlarda gaz filtratsiya jarayonini matematik modellashtirish va tadqiq qilish muammolari" deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot usullari tahlili va dissertatsiya mavzularga oid mavjud ishlar tahlili, hamda ko'p qatlamli gaz konlarida filtratsiya jarayonlarini matematik modellashtirish ahamiyati, roli va muammolari haqida fikrlar bayon etilgan. Shu bilan birga dinamik va bevosita bog'langan ko'p qatlamli g'ovak muhitlarda gazlarning filtratsiya jarayonini matematik modellashtirish muammolari, modellashtirishda sonli usullar tahlili va hisoblash tajribalari asosida jarayonni tadqiq qilish muammolari, hamda gaz konlarini o'zlashtirishda asosiy ko'rsatkichlarni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlari va tahlili keltirilib o'tilgan. Bir jinsli bo'lmagan o'zaro dinamik va bevosita aloqadagi qatlamlarda kechadigan filtratsion jarayonning matematik modeli, tadqiqot maqsad va vazifalari ko'rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning "Dinamik aloqadagi ko'p qatlamli g'ovak muhitlarda gaz nostatsionar filtratsiya jarayonini matematik modellashtirish" deb nomlangan ikkinchi bobida uch qatlamli o'zaro dinamik aloqadagi gaz konlari filtratsiya jarayoni chegaraviy masalasining bir va ikki o'lchovli matematik modeli, sonli yechish usuli hamda yechish algoritmi keltirilgan.

O'zaro dinamik aloqadagi uch qatlamli g'ovak muhitda gaz filtratsiya jarayonining ikki o'lchamli matematik modelini qaraymiz.

$$\begin{cases} \frac{\partial}{\partial x} \left[K_1 h_1 \frac{\partial P_1^2}{\partial x} \right] + \frac{\partial}{\partial y} \left[K_1 h_1 \frac{\partial P_1^2}{\partial y} \right] = 2\alpha \mu m h_1 \frac{\partial P_1}{\partial t} - \frac{K_{n1}}{h_{n1}} (P_2^2 - P_1^2) \\ \frac{\partial}{\partial x} \left[K_2 h_2 \frac{\partial P_2^2}{\partial x} \right] + \frac{\partial}{\partial y} \left[K_2 h_2 \frac{\partial P_2^2}{\partial y} \right] = 2\alpha \mu m h_2 \frac{\partial P_2}{\partial t} + \frac{K_{n1}}{h_{n1}} (P_2^2 - P_1^2) - \frac{K_{n2}}{h_{n2}} (P_3^2 - P_2^2) + Q \\ \frac{\partial}{\partial x} \left[K_3 h_3 \frac{\partial P_3^2}{\partial x} \right] + \frac{\partial}{\partial y} \left[K_3 h_3 \frac{\partial P_3^2}{\partial y} \right] = 2\alpha \mu m h_3 \frac{\partial P_3}{\partial t} + \frac{K_{n2}}{h_{n2}} (P_3^2 - P_2^2) \end{cases} \quad (1)$$

$$t > 0; \quad 0 < x < L; \quad 0 < y < L.$$

(1) matematik model quyidagi boshlang'ich va chegaraviy shartlarda yechiladi:

$$P_1(x, y, t_0) = P_{1H}(x, y), \quad P_2(x, y, t_0) = P_{2H}(x, y), \quad P_3(x, y, t_0) = P_{3H}(x, y). \quad (2)$$

$$\begin{cases} -K_1 h_1 \frac{\partial P_1}{\partial x} \Big|_{x=0} = \alpha (P_A - P_1); \\ -K_1 h_1 \frac{\partial P_1}{\partial y} \Big|_{y=0} = \alpha (P_A - P_1); \end{cases} \quad \begin{cases} K_1 h_1 \frac{\partial P_1}{\partial x} \Big|_{x=L} = \alpha (P_A - P_1); \\ K_1 h_1 \frac{\partial P_1}{\partial y} \Big|_{y=L} = \alpha (P_A - P_1); \end{cases} \quad (3)$$

$$\begin{cases} -K_2 h_2 \frac{\partial P_2}{\partial x} \Big|_{x=0} = \alpha (P_A - P_2); \\ -K_2 h_2 \frac{\partial P_2}{\partial y} \Big|_{y=0} = \alpha (P_A - P_2); \end{cases} \quad \begin{cases} K_2 h_2 \frac{\partial P_2}{\partial x} \Big|_{x=L} = \alpha (P_A - P_2); \\ K_2 h_2 \frac{\partial P_2}{\partial y} \Big|_{y=L} = \alpha (P_A - P_2); \end{cases} \quad (4)$$

$$\begin{cases} -K_3 h_3 \frac{\partial P_3}{\partial x} \Big|_{x=0} = \alpha (P_A - P_3); \\ -K_3 h_3 \frac{\partial P_3}{\partial y} \Big|_{y=0} = \alpha (P_A - P_3); \end{cases} \quad \begin{cases} K_3 h_3 \frac{\partial P_3}{\partial x} \Big|_{x=L} = \alpha (P_A - P_3); \\ K_3 h_3 \frac{\partial P_3}{\partial y} \Big|_{y=L} = \alpha (P_A - P_3); \end{cases} \quad (5)$$

$$Q = \sum_{i_q=1}^{N_q} q_i \delta(x - x_i)(y - y_i); \quad i_q = 1, \dots, N_q. \quad (6)$$

Bu yerda:

P_1, P_2, P_3 - qatlamlardagi bosim, P_A - chegaradagi bosim, μ - gaz qovushqoqligi, P_{1H}, P_{2H}, P_{3H} - qatlamlar boshlang'ich bosimi, K_1, K_2, K_3 - qatlamlar o'tkazuvchanlik koeffitsientlari, K_{n1}, K_{n2} - sust o'tkazuvchanlik qatlam koeffitsientlari, h_1, h_2, h_3 - qatlamlar quvvati, m - qatlamlar g'ovaklik koeffitsienti, $q_{i_q} - i_q$ - chi quduq debiti, a - gaz to'yinganligi koeffitsienti, L - qatlam uzunligi, N_q - quduqlar soni, n - chegara sohasidagi normal, δ - Dirak delta funksiyasi, α - o'lchamga keltiruvchi parametr.

(1)-(5) chegaraviy masalani chekli ayirma usulida yechish uchun quyidagi o'lchovsiz o'zgaruvchilarni kiritamiz:

$$x^* = \frac{x}{L}; \quad y^* = \frac{y}{L}; \quad \tau = \frac{K_x t P_x}{2\alpha m \mu L^2}; \quad K_1^* = \frac{K_1}{K_x}; \quad K_2^* = \frac{K_2}{K_x}; \quad K_3^* = \frac{K_3}{K_x}; \quad h_1^* = \frac{h_1}{h_x}; \quad h_2^* = \frac{h_2}{h_x};$$

$$h_3^* = \frac{h_3}{h_x}; \quad K_{n1}^* = \frac{K_{n1}}{K_x}; \quad K_{n2}^* = \frac{K_{n2}}{K_x}; \quad h_{n1}^* = \frac{h_{n1}}{h_x}; \quad h_{n2}^* = \frac{h_{n2}}{h_x}; \quad P_1^* = \frac{P_1}{P_x}; \quad P_2^* = \frac{P_2}{P_x}; \quad P_3^* = \frac{P_3}{P_x};$$

$$q^* = \frac{\mu L^2}{K_x h_x P_x} Q; \quad \alpha^* = \frac{L}{K_x h_x} \alpha.$$

Bunda K_x, h_x, P_x mos ravishda qatlam o'tkazuvchanligi, quvvati va bosimning ma'lum kattalikdagi qiymatlari:

$$K_x = \max(K_1, K_2, K_3, K_{H1}, K_{H2}), \quad h_x = \max(h_1, h_2, h_3, h_{H2}, h_{H3}), \quad P_x = \max(P_1, P_2, P_3).$$

Soddalashtirish uchun tenglamalardagi "*" ni qo'ymaslik orqali o'lchovsiz o'zgaruvchilardagi (1)-(5) masala quyidagicha yoziladi:

$$\begin{cases} \frac{\partial}{\partial x} \left[K_1 h_1 \frac{\partial P_1^2}{\partial x} \right] + \frac{\partial}{\partial y} \left[K_1 h_1 \frac{\partial P_1^2}{\partial y} \right] = \frac{h_1 \partial P_1}{\partial \tau} - \frac{K_{H1} L^2}{h_{H1} h_x^2 K_x} (P_2^2 - P_1^2), \\ \frac{\partial}{\partial x} \left[K_2 h_2 \frac{\partial P_2^2}{\partial x} \right] + \frac{\partial}{\partial y} \left[K_2 h_2 \frac{\partial P_2^2}{\partial y} \right] = \frac{h_2 \partial P_2}{\partial \tau} + \frac{K_{H1} L^2}{h_{H1} h_x^2 K_x} (P_2^2 - P_1^2) - \frac{K_{H2} L^2}{h_{H2} h_x^2 K_x} (P_3^2 - P_2^2) + q, \\ \frac{\partial}{\partial x} \left[K_3 h_3 \frac{\partial P_3^2}{\partial x} \right] + \frac{\partial}{\partial y} \left[K_3 h_3 \frac{\partial P_3^2}{\partial y} \right] = \frac{h_3 \partial P_3}{\partial \tau} + \frac{K_{H2} L^2}{h_{H2} h_x^2 K_x} (P_3^2 - P_2^2). \end{cases} \quad (7)$$

$$0 < x < 1; \quad 0 < y < 1; \quad \tau > 0$$

Masalaning boshlang'ich va chegaraviy shartlari quyidagicha:

$$P_1(x, y, t_0) = P_{1H}(x, y), \quad P_2(x, y, t_0) = P_{2H}(x, y), \quad P_3(x, y, t_0) = P_{3H}(x, y). \quad (8)$$

$$\begin{cases} -K_1 h_1 \frac{\partial P_1}{\partial x} \Big|_{x=0} = \alpha (P_A - P_1); \\ -K_1 h_1 \frac{\partial P_1}{\partial y} \Big|_{y=0} = \alpha (P_A - P_1); \end{cases} \quad \begin{cases} K_1 h_1 \frac{\partial P_1}{\partial x} \Big|_{x=1} = \alpha (P_A - P_1); \\ K_1 h_1 \frac{\partial P_1}{\partial y} \Big|_{y=1} = \alpha (P_A - P_1); \end{cases} \quad (9)$$

$$\begin{cases} -K_2 h_2 \frac{\partial P_2}{\partial x} \Big|_{x=0} = \alpha (P_A - P_2); \\ -K_2 h_2 \frac{\partial P_2}{\partial y} \Big|_{y=0} = \alpha (P_A - P_2); \end{cases} \quad \begin{cases} K_2 h_2 \frac{\partial P_2}{\partial x} \Big|_{x=1} = \alpha (P_A - P_2); \\ K_2 h_2 \frac{\partial P_2}{\partial y} \Big|_{y=1} = \alpha (P_A - P_2); \end{cases} \quad (10)$$

$$\begin{cases} -K_3 h_3 \frac{\partial P_3}{\partial x} \Big|_{x=0} = \alpha (P_A - P_3); \\ -K_3 h_3 \frac{\partial P_3}{\partial y} \Big|_{y=0} = \alpha (P_A - P_3); \end{cases} \quad \begin{cases} K_3 h_3 \frac{\partial P_3}{\partial x} \Big|_{x=1} = \alpha (P_A - P_3); \\ K_3 h_3 \frac{\partial P_3}{\partial y} \Big|_{y=1} = \alpha (P_A - P_3); \end{cases} \quad (11)$$

Tenglamalar tizimida qulaylik uchun $T_1 = K_1 h_1, T_2 = K_2 h_2, T_3 = K_3 h_3$.

$$R_1 = \frac{K_{H1} L^2}{h_{H1} h_x^2 K_x}, \quad R_2 = \frac{K_{H2} L^2}{h_{H2} h_x^2 K_x} \text{ belgilashlarni kiritamiz.}$$

Chegaraviy (8), (11) shartlar bilan (7) differensial tenglamani tavsiflovchi g'ovak muhida gaz filtratsiyasining o'lchovsiz chegaraviy masalasi (7)-(11) ko'ndalang-kesim oshkormas sxemasining chekli-ayirmali usulida yechiladi.

Diskret modelni qurish. (7)-(11) chegaraviy masalani sonli yechish uchun x, y o'qida $0 < t < T_0$ vaqt oraliqlarida quyidagi to'rti quramiz

$$\omega_{x,y,\tau} = \{x = i\Delta x; y = j\Delta y; i = \overline{1, n}; j = \overline{1, n}; \tau_l = l\Delta \tau; l = \overline{0, 1, 2, \dots, N_\tau}; \Delta \tau = \frac{T_0}{N_\tau}\}.$$

Ushbu sohada chekli ayirmali masalani qurish uchun oshkormas o'zgaruvchilar yo'nalishi sxemasining (ko'ndalang-kesim sxemas) algoritmik g'oyasi qo'llaniladi. l -chi vaqt qatlamidan $l+1$ qatlamiga o'tish $0.5\Delta \tau$ qadam bilan ikki bosqichda amalga oshiriladi. Natijada yuqoridagi (7) tenglama ikkita chekli ayirmali tenglamalar tizimini ketma-ket yechishga keladi. U holda bu tenglamalarni ichki tugunlar uchun $l+0,5$ va $l+1$ vaqt qatlamida quyidagi shaklda yozish mumkin:

$$\begin{aligned}
& \frac{T_{1i-0.5,j} P_{1i-1,j}^{2(i+1,2)} - (T_{1i-0.5,j} + T_{1i+0.5,j}) P_{1i,j}^{2(i+1,2)} + T_{1i+0.5,j} P_{1i+1,j}^{2(i+1,2)}}{\Delta x^2} + \\
& + \frac{T_{1i,j-0.5} P_{1i,j-1}^{2(i)} - (T_{1i,j-0.5} + T_{1i,j+0.5}) P_{1i,j}^{2(i)} + T_{1i,j+0.5} P_{1i,j+1}^{2(i)}}{\Delta y^2} = \\
& = h_{1i,j} \frac{P_{1i,j}^{(i+1/2)} - P_{1i,j}^i}{\Delta \tau / 2} - R_1 P_{2i,j}^{2(i+1/2)} + R_1 P_{1i,j}^{2(i+1/2)} + R_3 P_{3i,j}^{2(i+1/2)}, \\
& \frac{T_{1i-0.5,j} P_{1i-1,j}^{2(i+1/2)} - (T_{1i-0.5,j} + T_{1i+0.5,j}) P_{1i,j}^{2(i+1/2)} + T_{1i+0.5,j} P_{1i+1,j}^{2(i+1/2)}}{\Delta x^2} + \\
& + \frac{T_{1i,j-0.5} P_{1i,j-1}^{2(i+1)} - (T_{1i,j-0.5} + T_{1i,j+0.5}) P_{1i,j}^{2(i+1)} + T_{1i,j+0.5} P_{1i,j+1}^{2(i+1)}}{\Delta y^2} = \\
& = h_{1i,j} \frac{P_{1i,j}^{(i+1/2)} - P_{1i,j}^{(i+1)}}{\Delta \tau / 2} - R_1 P_{2i,j}^{2(i+1)} + R_1 P_{1i,j}^{2(i+1)} + R_3 P_{3i,j}^{2(i+1)}, \\
& \frac{T_{2i-0.5,j} P_{2i-1,j}^{2(i+1/2)} - (T_{2i-0.5,j} + T_{2i+0.5,j}) P_{2i,j}^{2(i+1/2)} + T_{2i+0.5,j} P_{2i+1,j}^{2(i+1/2)}}{\Delta x^2} + \\
& + \frac{T_{2i,j-0.5} P_{2i,j-1}^{2(i)} - (T_{2i,j-0.5} + T_{2i,j+0.5}) P_{2i,j}^{2(i)} + T_{2i,j+0.5} P_{2i,j+1}^{2(i)}}{\Delta y^2} = \\
& = h_{2i,j} \frac{P_{2i,j}^{(i+1/2)} - P_{2i,j}^i}{\Delta \tau / 2} + R_1 P_{2i,j}^{2(i+1/2)} - R_1 P_{1i,j}^{2(i+1/2)} - R_2 P_{3i,j}^{2(i+1/2)} + R_2 P_{2i,j}^{2(i+1/2)} + \delta_{i,j} q_{i,j}, \\
& \frac{T_{2i-0.5,j} P_{2i-1,j}^{2(i+1/2)} - (T_{2i-0.5,j} + T_{2i+0.5,j}) P_{2i,j}^{2(i+1/2)} + T_{2i+0.5,j} P_{2i+1,j}^{2(i+1/2)}}{\Delta x^2} + \\
& + \frac{T_{2i,j-0.5} P_{2i,j-1}^{2(i+1)} - (T_{2i,j-0.5} + T_{2i,j+0.5}) P_{2i,j}^{2(i+1)} + T_{2i,j+0.5} P_{2i,j+1}^{2(i+1)}}{\Delta y^2} = \\
& = h_{2i,j} \frac{P_{2i,j}^{(i+1/2)} - P_{2i,j}^{(i+1)}}{\Delta \tau / 2} + R_1 P_{2i,j}^{2(i+1)} - R_1 P_{1i,j}^{2(i+1)} - R_2 P_{3i,j}^{2(i+1)} + R_2 P_{2i,j}^{2(i+1)} + \delta_{i,j} q_{i,j}, \\
& \frac{T_{3i-0.5,j} P_{3i-1,j}^{2(i+1/2)} - (T_{3i-0.5,j} + T_{3i+0.5,j}) P_{3i,j}^{2(i+1/2)} + T_{3i+0.5,j} P_{3i+1,j}^{2(i+1/2)}}{\Delta x^2} + \\
& + \frac{T_{3i,j-0.5} P_{3i,j-1}^{2(i)} - (T_{3i,j-0.5} + T_{3i,j+0.5}) P_{3i,j}^{2(i)} + T_{3i,j+0.5} P_{3i,j+1}^{2(i)}}{\Delta y^2} = \\
& = h_{3i,j} \frac{P_{3i,j}^{(i+1/2)} - P_{3i,j}^i}{\Delta \tau / 2} + R_2 P_{3i,j}^{2(i+1/2)} - R_2 P_{2i,j}^{2(i+1/2)} + R_3 P_{1i,j}^{2(i+1/2)}, \\
& \frac{T_{3i-0.5,j} P_{3i-1,j}^{2(i+1/2)} - (T_{3i-0.5,j} + T_{3i+0.5,j}) P_{3i,j}^{2(i+1/2)} + T_{3i+0.5,j} P_{3i+1,j}^{2(i+1/2)}}{\Delta x^2} + \\
& + \frac{T_{3i,j-0.5} P_{3i,j-1}^{2(i+1)} - (T_{3i,j-0.5} + T_{3i,j+0.5}) P_{3i,j}^{2(i+1)} + T_{3i,j+0.5} P_{3i,j+1}^{2(i+1)}}{\Delta y^2} = \\
& = h_{3i,j} \frac{P_{3i,j}^{(i+1/2)} - P_{3i,j}^{(i+1)}}{\Delta \tau / 2} + R_2 P_{3i,j}^{2(i+1)} - R_2 P_{2i,j}^{2(i+1)} + R_3 P_{1i,j}^{2(i+1)}.
\end{aligned}$$

Bu chekli ayirmali tenglamalar tizimidan ko‘rinib turibdiki, qo‘yilgan masala bosim funksiyasiga nisbatan chiziqsizdir. Shu sabab masalani yechishda har bir vaqt

oralig'ida iteratsion usulni ham qo'llashga to'g'ri keladi. Buning uchun chekli ayirmali tenglamalarning nohiziq hadlarini kvazichiziqi holga olib kelish metodikasidan foydalanamiz. Bu metodikaga asoslanib uning nohiziq qismlarini quyidagi ko'rinishda ifodalaymiz:

$$\varphi(P) \equiv \varphi(\bar{P}) + (P - \bar{P}) \frac{\partial \varphi(\bar{P})}{\partial P}. \quad (12)$$

Bu yerda:

\bar{P} - qatlam bosimi funksiyasining yaqinlashuvchi qiymati. U iteratsion jarayondan aniqlanadi $\bar{P} = P_{i,j}^{(s)}$, boshlang'ich holatda $P_{i,j}^{(0)} = \hat{P}_{i,j}$. Agar (7) formulani bosim funksiyasiga nisbatan yozadigan bo'lsak, u holda quyidagi formulaga ega bo'lamiz.

$$P^{2(i+1)} = 2\bar{P}^{(i+1)} P^{(i+1)} - \bar{P}^{2(i+1)}$$

Bosim funksiyasiga nisbatan iteratsion jarayon quyidagi shart bajarilmaguncha davom etadi

$$\left| P_{ij}^{(s)} - P_{ij}^{(s-1)} \right| < \varepsilon, \quad \left| P_{ij}^{(s)} - P_{ij}^{(s-1)} \right| < \varepsilon, \quad \left| P_{3j}^{(s)} - P_{3j}^{(s-1)} \right| < \varepsilon. \quad (13)$$

Bu yerda:

ε - iteratsiya aniqligi, oldindan beriladigan kichik son;

s - iteratsiya nomeri.

Shunday qilib, chiziqi bo'lmagan tenglamaning chiziqsiz hadlarini kvazichiziqi holga keltirish usulidan foydalanib, yuqoridagi tenglamalar tizimini kvazichiziqi tenglamalar tizimiga almashtiramiz va uni chekli ayirmali tenglamalar ko'rinishida quyidagicha yozamiz:

1- qatlam

$$\begin{aligned} & \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{i-0.5,j} (2\bar{P}_{i-1,j}^{(i+1/2)} P_{i-1,j}^{(i+1/2)} - \bar{P}_{i-1,j}^{2(i+1/2)}) - \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} (T_{i-0.5,j} + T_{i+0.5,j}) (2\bar{P}_{i,j}^{(i+1/2)} P_{i,j}^{(i+1/2)} + \bar{P}_{i,j}^{2(i+1/2)}) + \\ & + \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{i+0.5,j} (2\bar{P}_{i+1,j}^{(i+1/2)} P_{i+1,j}^{(i+1/2)} - \bar{P}_{i+1,j}^{2(i+1/2)}) + \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} T_{i,j-0.5} P_{i,j-1}^{2(i)} - \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} (T_{i,j-0.5} + T_{i,j+0.5}) P_{i,j}^{2(i)} + \\ & + \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} T_{i,j+0.5} P_{i,j+1}^{2(i)} = h_{i,j} P_{i,j}^{(i+1)} - h_{i,j} P_{i,j}^{(i)} - \frac{\Delta \tau}{2} R_1 (2\bar{P}_{2i,j}^{(i+1/2)} P_{2i,j}^{(i+1/2)} - \bar{P}_{2i,j}^{2(i+1/2)}) + \\ & + \frac{\Delta \tau}{2} R_1 (2\bar{P}_{i,j}^{(i+1/2)} P_{i,j}^{(i+1/2)} - \bar{P}_{i,j}^{2(i+1/2)}) + \frac{\Delta \tau}{2} R_3 (2\bar{P}_{3i,j}^{(i+1)} P_{3i,j}^{(i+1)} - \bar{P}_{3i,j}^{2(i+1)}); \\ & \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{i-0.5,j} P_{i-1,j}^{2(i+1/2)} - \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} (T_{i-0.5,j} + T_{i+0.5,j}) P_{i,j}^{2(i+1/2)} + \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{i+0.5,j} P_{i+1,j}^{2(i+1/2)} + \\ & + \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} T_{i,j-0.5} (2\bar{P}_{i,j-1}^{(i+1)} P_{i,j-1}^{(i+1)} - \bar{P}_{i,j-1}^{2(i+1)}) - \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} (T_{i,j-0.5} + T_{i,j+0.5}) (2\bar{P}_{i,j}^{(i+1)} P_{i,j}^{(i+1)} + \bar{P}_{i,j}^{2(i+1)}) + \\ & + \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} T_{i,j+0.5} (2\bar{P}_{i,j+1}^{(i+1)} P_{i,j+1}^{(i+1)} - \bar{P}_{i,j+1}^{2(i+1)}) = h_{i,j} P_{i,j}^{(i+1/2)} - h_{i,j} P_{i,j}^{(i+1)} - \frac{\Delta \tau}{2} R_1 (2\bar{P}_{2i,j}^{(i+1/2)} P_{2i,j}^{(i+1/2)} - \bar{P}_{2i,j}^{2(i+1/2)}) + \\ & + \frac{\Delta \tau}{2} R_1 (2\bar{P}_{i,j}^{(i+1/2)} P_{i,j}^{(i+1/2)} - \bar{P}_{i,j}^{2(i+1/2)}) + \frac{\Delta \tau}{2} R_3 (2\bar{P}_{3i,j}^{(i+1)} P_{3i,j}^{(i+1)} - \bar{P}_{3i,j}^{2(i+1)}). \end{aligned}$$

$$\text{Bu yerda } R_1 = \frac{K_{\Pi 1} L^2}{h_{\Pi 1} h_x^2 K_x}; \quad R_2 = \frac{K_{\Pi 2} L^2}{h_{\Pi 2} h_x^2 K_x}, \quad R_{33} = 0.$$

Xuddi shunday qatlamning ikkinchi va uchinchi tenglamasini ham $l+1/2$ vaqt qatlami uchun yuqoridagi kabi yozish mumkin.

Har bir $x=x_i$ nuqtada bosim $P_{i,j}^{l+1/2}$ qiymatini $l+1/2$ - vaqt qatlamida quyidagi uchta bir-biriga bog'liq chekli ayirmali tenglamalar tizimiga ega bo'lamiz ($l+1/2$ yuqori indeksni qulaylik uchun tushirib qoldiramiz):

$$\begin{cases} a_i P_{i-1,j} - b_i P_{i,j} + c_i P_{i+1,j} + d_i P_{2i,j} + e_i P_{3i,j} = -f_i; \\ a'_i P_{2i-1,j} - b'_i P_{2i,j} + c'_i P_{2i+1,j} + d'_i P_{i,j} + e'_i P_{3i,j} = -f'_i; \\ a''_i P_{3i-1,j} - b''_i P_{3i,j} + c''_i P_{3i+1,j} + d''_i P_{2i,j} + e''_i P_{i,j} = -f''_i; \quad i = \overline{1, n-1}. \end{cases} \quad (14)$$

Bu yerda $e_i = 0$, $e'_i = 0$, $e''_i = 0$. Bunda birinchi, ikkinchi va uchinchi tenglamalar koeffitsientlari quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} a_i &= \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{i-0.5,j} 2\bar{P}_{i-1,j}^{(l+1/2)}; \quad b_i = h_{i,j} - \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} (T_{i-0.5,j} + T_{i+0.5,j} - \frac{\Delta \tau}{2} R_1) 2\bar{P}_{i,j}^{(l+1/2)} \\ c_i &= \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{i+0.5,j} 2\bar{P}_{i+1,j}^{(l+1/2)}; \quad d_i = \frac{\Delta \tau}{2} R_1 2\bar{P}_{2i,j}^{(l+1/2)}; \quad e_i = \frac{\Delta \tau}{2} R_2 2\bar{P}_{3i,j}^{(l+1/2)} \\ f_i &= \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{i-0.5,j} \bar{P}_{i-1,j}^{2(l+1/2)} - \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} (T_{i-0.5,j} + T_{i+0.5,j}) \bar{P}_{i,j}^{2(l+1/2)} + \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} T_{i,j+0.5} P_{i,j+1}^{2(l)} - \\ &- h_{i,j} P_{i,j}^{l+1/2} + \frac{\Delta \tau}{2} R_1 \bar{P}_{2i,j}^{2(l+1/2)} - \frac{\Delta \tau}{2} R_1 \bar{P}_{i,j}^{2(l+1/2)} + \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{i+0.5,j} \bar{P}_{i+1,j}^{2(l+1/2)} - \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} T_{i,j-0.5} P_{i,j-1}^{2(l)} - \\ &- \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} (T_{i,j-0.5} + T_{i,j+0.5}) P_{i,j}^{2(l)} - \frac{\Delta \tau}{2} R_3 \bar{P}_{3i,j}^{2(l+1/2)}; \quad i = \overline{1, n-1}; \quad j = \overline{1, n-1}. \\ a'_i &= T \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{2i-0.5,j} 2\bar{P}_{2i-1,j}^{(l+1/2)}; \quad c'_i = \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{2i+0.5,j} 2\bar{P}_{2i+1,j}^{(l+1/2)}; \quad d'_i = \frac{\Delta \tau}{2} R_1 2\bar{P}_{i,j}^{(l+1/2)} \\ b'_i &= \left(\frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} (T_{2i-0.5,j} + T_{2i+0.5,j}) + \frac{\Delta \tau}{2} R_1 + \frac{\Delta \tau}{2} R_2 \right) 2\bar{P}_{2i,j}^{(l+1/2)} + h_{2i,j}; \quad e'_i = R_2 \Delta x^2; \\ f'_i &= \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{2i-0.5,j} \bar{P}_{2i-1,j}^{2(l+1/2)} - \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} T_{2i,j-0.5} P_{2i,j-1}^{2(l)} + \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} (T_{2i,j-0.5} + T_{2i,j+0.5}) P_{2i,j}^{2(l)} - \\ &- \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{2i+0.5,j} \bar{P}_{2i+1,j}^{2(l+1/2)} - \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} T_{2i,j+0.5} P_{2i,j+1}^{2(l)} - \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} (T_{2i-0.5,j} + T_{2i+0.5,j}) \bar{P}_{2i,j}^{2(l+1/2)} - h_{2i,j} P_{2i,j}^{l+1/2} - \\ &- \frac{\Delta \tau}{2} R_1 \bar{P}_{2i,j}^{2(l+1/2)} + \frac{\Delta \tau}{2} R_1 \bar{P}_{i,j}^{2(l+1/2)} + \frac{\Delta \tau}{2} R_2 \bar{P}_{3i,j}^{2(l+1/2)} - \frac{\Delta \tau}{2} R_2 \bar{P}_{2i,j}^{2(l+1/2)} + \frac{\Delta \tau}{2} \delta_{i,j} q_{i,j}, \\ a''_i &= \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{3i-0.5,j} 2\bar{P}_{3i-1,j}^{(l+1/2)}; \quad c''_i = \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{3i+0.5,j} 2\bar{P}_{3i+1,j}^{(l+1/2)}; \quad d''_i = \frac{\Delta \tau}{2} R_2 2\bar{P}_{2i,j}^{(l+1/2)}; \\ b''_i &= \left(\frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} (T_{3i-0.5,j} + T_{3i+0.5,j}) + \frac{\Delta \tau}{2} R_2 \right) 2\bar{P}_{3i,j}^{(l+1/2)} + h_{3i,j}; \quad e''_i = \frac{\Delta \tau}{2} R_3 2\bar{P}_{i,j}^{(l+1/2)}; \\ f''_i &= \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{3i-0.5,j} \bar{P}_{3i-1,j}^{2(l+1/2)} - \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} (T_{3i-0.5,j} + T_{3i+0.5,j}) \bar{P}_{3i,j}^{2(l+1/2)} + \frac{\Delta \tau}{2\Delta x^2} T_{3i+0.5,j} \bar{P}_{3i+1,j}^{2(l+1/2)} - \\ &- \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} T_{3i,j-0.5} P_{3i,j-1}^{2(l)} + \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} (T_{3i,j-0.5} + T_{3i,j+0.5}) P_{3i,j}^{2(l)} - \frac{\Delta \tau}{2\Delta y^2} T_{3i,j+0.5} P_{3i,j+1}^{2(l)} - h_{3i,j} P_{3i,j}^{l+1/2} - \\ &- \frac{\Delta \tau}{2} R_2 \bar{P}_{3i,j}^{2(l+1/2)} + \frac{\Delta \tau}{2} R_2 \bar{P}_{2i,j}^{2(l+1/2)} - \frac{\Delta \tau}{2} R_3 \bar{P}_{i,j}^{2(l+1/2)}. \end{aligned}$$

Chekli ayirmalar tizimini yechish uchun haydash usulini qo'llaymiz. Haydash usuli qoidasiga ko'ra yechimlarni quyidagicha yozish mumkin:


$$\begin{cases} P_{1i,j} = A_i P_{1i+1,j} + B_i P_{2i+1,j} + C_i P_{3i+1,j} + D_i; \\ P_{2i,j} = A'_i P_{2i+1,j} + B'_i P_{1i+1,j} + C'_i P_{3i+1,j} + D'_i; \\ P_{3i,j} = A''_i P_{3i+1,j} + B''_i P_{2i+1,j} + C''_i P_{1i+1,j} + D''_i; \end{cases} \quad i = \overline{N-1,0}. \quad (15)$$

Haydash usuli koefitsentlarini aniqlash uchun (6)-(7)dan foydalanib quydagi tenglamalar tizimini yozamiz.


$$\begin{cases} a_i P_{1i-1,j} - b_i P_{1i,j} + c_i P_{1i+1,j} + d_i P_{2i,j} + e_i P_{3i,j} = -f_i, \\ P_{1i-1,j} = A_{i-1} P_{1i,j} + B_{i-1} P_{2i,j} + C_{i-1} P_{3i,j} + D_{i-1}, \\ a'_i P_{2i-1,j} - b'_i P_{2i,j} + c'_i P_{2i+1,j} + d'_i P_{1i,j} + e'_i P_{3i,j} = -f'_i, \\ P_{2i-1,j} = A'_{i-1} P_{2i,j} + B'_{i-1} P_{1i,j} + C'_{i-1} P_{3i,j} + D'_{i-1}, \\ a''_i P_{3i-1,j} - b''_i P_{3i,j} + c''_i P_{3i+1,j} + d''_i P_{2i,j} + e''_i P_{1i,j} = -f''_i, \\ P_{3i-1,j} = A''_{i-1} P_{3i,j} + B''_{i-1} P_{2i,j} + C''_{i-1} P_{1i,j} + D''_{i-1}. \end{cases} \quad (16)$$

Bu tenglamalar tizimidan $A_i, B_i, C_i, D_i; A'_i, B'_i, C'_i, D'_i; A''_i, B''_i, C''_i, D''_i$ haydash koefitsentlari topiladi. Haydash koefitsentlarining boshlang'ich qiymatlari chegaraviy shartlardan aniqlanadi. Xuddi shunday tizimning ikkinchi tenglamalar sistemasi ham $l+1$ vaqt qatlami uchun yuqoridagi (14) chekli ayirmali tenglama kabi yoziladi.


